

NETIKET VA ONLAYN ETIKET ME'YORLARI

Ruziyeva Nilufar Xafizovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti, PhD

Oymatova Marjona Tohirjonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada onlayn muloqot muhitida qay yo'sinda muomala qilish madaniyati, netiket tushunchasi tahlil qilingan. Onlayn muloqot jarayonida axloqiy me'yorlarga rioya etish, suhbatdoshning hurmatini saqlagan holda murojaat qilish haqida fikrlar keltirilgan va tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, netiketga amal qilish onlayn muloqotda hurmatni, ijobiylikni va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashda muhim omil ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: netiket, onlayn etik muomala, flaming, trolling, muloqot madaniyati, onlayn diskurs, etik me'yorlar, hurmat, ijobiy ohang.

Introduction

“Netiket” atamasi inglizcha *netiquette* — “network” ya'ni tarmoq ma'nosini bildirsa, “etiquette” so'zi esa odob-axloq qoidalari so'zlarining qo'shilishidan yuzaga kelgan. Netiket— internet muhitida odob-axloq qoidalarini belgilovchi tushuncha hisoblanadi va biz insonlar onlayn muloqotimiz davomida amal qilishimiz mumkin bo'lgan etiket qoidalari yig'indisi. Bunda foydalanuvchilar hurmat va shaxsiy chegaralarni saqlagan holda murojaat qilishi ko'zda tutilgan. Netiket qoidalariga bo'ysunish esa hurmat, aniqlik, ijobiy muhitni yaratish va o'zaro bir-birini tushunishni ta'minlashni maqsad qiladi. Netiket tushunchasi ilk marotaba 1990-yillarda kompyuter tarmoqlarida keng qo'llanila boshlangan, uning klassik shakli amerikalik tadqiqotchi Virginia Shea tomonidan ishlab chiqilgan va “Netiquette” qo'llanmasida yoritilgan[12,75]. Ushbu asarda internet muloqotining bir necha asosiy qoidalari yoritilgan. Unda boshqalarning qimmatli vaqtini qadrlash, hurmatni saqlagan holda suhbatlashish, yozilgan ma'lumot real hayotda ham aytishga yaroqli holda bo'lishi va boshqa muhim tomonlari yoritilgan.

“Netiket” — bu onlayn-muloqot davomida foydalanuvchilar amal qilishi kerak bo'lgan etiket qoidalari majmui hisoblanadi. Bugungi kunda odob-axloq qoidalari odamlarning kundalik hayotidagi, ish davomidagi, jamoat joylari va ko'chada ziyofat va turli tadbirlardagi xatti-harakatlarini ifoda qiluvchi birlikdir. Barcha sohalaridagi kabi internetda ham etika qoidalariga rioya etish talab e'tiladi. Fanda internet etikasi “netiket” tushunchasi bilan ta'riflanadi. Netiket qoidalaridan xabardor bo'lgan holda suhbat qurish axloqiy talab hisoblanadi va turli xil raqamli xavfsizlik va shaxsiy obro'ni oshiradi.

Netiketning asosiy tamoyillari sifatida hurmat, aniqlik, ijobiy ohangda soʻzlashuv, haddan oshmaslik kabilar farqlanadi. Bunday tamoyillar onlayn muloqotning ijobiy tus olishida muhim rol oʻynaydi.

Hurmat — onlayn muloqotda ham real hayotdagidek inson shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilish. Hurmat internetdagi muloqot shaklining eng muhim qoidalaridan biridir. Chunki biz onlayn yozishganda suhbatdoshimizni koʻzimiz bilan koʻrmaymiz, uning kayfiyati, ohangi yoki yuz ifodasi qandayligini bilmaymiz. Bunday vaziyatda soʻzlarimiz odamga qanday taʼsir qilishini oʻylamasak, uni xafa qilib qoʻyishimiz mumkin. Virginia Shea taʼkidlaydiki “Netiketning birinchi va eng muhim qoidasini esda tuting: onlayn suhbatdoshingizni xuddi real hayotdagidek hurmat bilan munosabatda boʻling” deb aytgan[12,75]. Hurmat qilishning onlayn muomaladagi koʻrinishlari juda oddiy koʻrinishi mumkin, ammo u juda muhim hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi onlayn suhbatlardan birini tahlil qiladigan boʻlsak, ijtimoiy tarmoqlardan biridagi talabani ustoziga murojaati quyidagicha:

— “Ustoz, ertangi dars boʻladimi yoʻqmi?” Bu yerda murojaat shakli hurmatni ifodalagan, juda qoʻpol va buyruq ohangida gapirilgan. Natijada, ustozda salbiy kayfiyat va suhbatda sovuqlikni oshiradi.

Ijobiy holat va hurmatni saqlagan holda talaba xabarni quyidagicha yuborishi mumkin:

“Assalomu alaykum, ustoz. Iltimos, ertaga darsimiz qaysi paytda boʻlishini ayta olasizmi?”

Bu nutqiy vaziyatda ustoz xabarni iliqlik ohanggi bilan qabul qiladi chunki salomlashuv, hurmatni ifodalovchi “iltimos” soʻzi va iliqlik ohanggi orqali murojaat qilingan.

Yozuv ohangini ehtiyot qilish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Asosan, onlayn yozuvda kinoya, kesatq yoki qoʻpol iboralardan qochish kerak chunki bunday ifodalarni oʻquvchi salbiy ohangda tushunishi va qabul qilishi mumkin.

Yozma muloqotda intonatsiya yoʻqligi sababli kinoya koʻpincha xabarni qabul qiluvchilar tomonidan notoʻgʻri tushuniladi. Agar hazil yoki kinoya ishlatilsa, emoji yoki izoh orqali maʼnoni aniq va tushunarli tilda berilishi kerak. Netiket doirasida ifoda aniq, ijobiy va tushunarli boʻlishi muhimdir[2,54]. Misol tariqasida oladigan boʻlsak, quyidagi gapni qabul qiluvchi jiddiy qabul qiladi. “Ha, albatta, sizning fikringiz juda zoʻr” — bu kinoyali ohangda yozilgan boʻlishi mumkin va iliqlikni ifodalovchi hech qanday belgi ifodalanmagan.

Bunday holat muloqotda salbiy his-tuygʻular paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Agar hazil yoki kinoya ishlatilsa, emoji, trli xil memlardan yoki izoh orqali maʼno aniqlashtirilishi kerak.

Masalan, “Ha, bu fikr qiziq 😊” shakli tushunishni yengillashtiradi.

Shu tarzda, birgina ijobiy maʼnoni ifodalovchi emoji orqali suhbatdagi noqulaylikning oldini olish va suhbatning yumshoq va iliq ohangda davom etishiga erishish mumkin.

Haqiqiy hayotda boʻlgani kabi barcha shaxsni teng koʻrishimiz kerak. Suhbatdoshning yoshi, jinsi yoki mavqeidan qatʼi nazar, unga inson sifatida birdek munosabatda boʻlish onlayn madaniyatda ham talab qilinadi.

Shaxsiy hududni hurmat qilish ham madaniyatning bir shaklidir, boshqa odamning roziligisiz uning shaxsiy maʼlumotlarini tarqatmaslik yoki suhbatini ommaga chiqarmaslik ham hurmat qoidasiga kiradi.

Agar hurmat qoidasi buzilsa, internetda “Flaming” — hissiyotga berilib yozish holati yaʼni qizishib janjallashishdir. Flaming deganda, asosan, hissiyot nazoratidan chiqib ketgan,

tajovuzkor, keskin ohangdagi yozma xabar tushuniladi. Tadqiqotchi olim Baron (2010) buni “disinhibition effect” deb ataydi — ya’ni, odam o’zini internetda erkinroq, hatto ba’zan javobgarliksiz his qiladi[2,103]. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlarda “Bu nima qilib yozgan?” yoki “O’zi kim u menga aql o’rgatyapti?” kabi kinoyali yozuvlar tez-tez uchraydi. “trolling” bunda boshqalarni ataylab haqoratlash yoki asabiga tegish kabi salbiy hodisalar tez-tez uchraydi.

Baron buni “disinhibition effect” deb ataydi — ya’ni, odam o’zini internetda erkinroq, hatto ba’zan javobgarliksiz his qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlarda “Bu nima qilib yozgan?” yoki “O’zi kim u menga aql o’rgatayotgan?” kabi kinoyali yozuvlar tez-tez uchraydi. Masalan, Telegram guruhida bir talaba “Bugungi darsni tushunmadim” deb yozadi. O’qituvchi esa: “Tushunmaydigan nima qoldi endi?” deb javob beradi. Bu so’z ohangida kinoya bor — va shu kinoya onlayn muhitda “flame” sifatida qabul qilinadi. Natijada, muloqotning ijobiy ruhi yo’qoladi, ishtirokchilar orasida salbiy munosabat shakllanadi[2,75].

Flamingning oldini olish uchun foydalanuvchi savolga javob berishdan oldin biroz tanaffus qilishi, “Bu so’zim qanday qabul qilinadi?” deb o’ylab ko’rishi, yoki yumshoqlik bildiruvchi emoji va so’zlardan foydalanishi tavsiya etiladi.

Flamingdan farqli ravishda, trolling bu hissiyotga berilib xabar yozish emas, balki boshqalarni ataylab g’azablantirishdir. Yana bir mashhur tadqiqotchi olim Crystal trollingni “deliberate online provocation to disrupt digital harmony” — ya’ni raqamli muvozanatni buzish maqsadidagi ataylab yozilgan xabar sifatida ta’riflaydi. Masalan, kimdir ijtimoiy tarmoqda ekologiya haqida post yozsa, troll foydalanuvchi quyidagicha xabarga javob yozishi mumkin: “Bularni o’qib nima foyda, baribir hech kim daraxt ekmaydi.” deb yozadi. Bunday izohlar konstruktiv fikr bildirishni ko’zlamaydi, qabul qiluvchidan reaksiya olishga qaratilgan bo’ladi. Hardaker buni “identity performance” — ya’ni shaxs o’zini onlayn muhitda boshqacha ko’rsatishga urinishi deb izohlaydi[4,2234].

Xabarlar tushunarli, soda, qisqa va mantiqiy tuzilgan bo’lishi suhbatdagi aniqlikni ta’minlaydi. talab qiladi. Aniq yozilgan xabar tushunmovchiliklarning oldini oladi va suhbatdoshga hurmatni ham ifodalaydi. Onlayn muloqotda aniqlik juda muhim omillardan biri, chunki yozma shaklda gaplashayotganda noto’g’ri tushunish xavfi real suhbatdagidan ko’ra ancha yuqori darajada bo’ladi. Real hayotimizdagi suhbatda biz ohang, imo-ishora yoki yuz ifodalarimizdan foydalanamiz, suhbatdoshimizning bizga bo’lgan emotsiyasini sezib turamiz va ular ma’noni aniqroq yetkazadi. Lekin internetdagi yozishmalarda bu imkoniyat cheklangan bo’ladi. Shuning uchun fikrni ortiqcha chalkashliklardan xoli, sodda va tushunarli tarzda ifodalash onlayn etik muomala me’yorlaridan biridir.

Aniqlikni ta’minlash uchun uch narsaga e’tibor berish zarur bo’ladi. Bunda ortiqcha abbreviaturalardan qochishkerak va faqatgina hammaga tushunarli qisqartmalardan foydalanish kerak.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, onlayn muomala tezkorligi sababli odamlar ko’pincha qisqa yozishga intiladi, lekin aynan shunday qisqartirishlar muloqot sifatiga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun netiketning muhim tamoyillaridan biri — yozgan ma’lumotimizni o’qib chiqib, boshqalar buni qanday tushinishi mumkinligi haqida o’ylab ko’rishdir[11,69].

Aniq yozilgan xabar nafaqat tushunmovchiliklarning oldini oladi, balki suhbatdoshga hurmatni ham ifodalaydi. Chunki aniqlik qarshimizdagi insonni qadrlash va unga bo'lgan munosabatni ko'rsatadi. Suhbat jarayonida haddan oshmaslik ya'ni spam, keraksiz xabar va tajovuzkor iboralardan qochgan holda o'tkazilgan subat samarali bo'ladi. Shuningdek, ijobiy ohang ham virtual muloqotdagi so'z tanlash, emoji qo'llash va ohangni ijobiy ushlab turishda ko'maklashadigan omillardan biri [3,75].

Mutaxassislar ta'kidlashicha, netiket tamoyillariga amal qilish onlayn muloqotning samaradorligini oshirib, turli madaniyatlarga mansub insonlar o'rtasida ijobiy muloqot muhitini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, netiket qoidalariga amal qilish internet foydalanuvchisining shaxsiy obro'sini, ijtimoiy mas'uliyati va kommunikativ madaniyati darajasini aks ettiradi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, netiket va onlayn muomala me'yorlari texnologik zarurat, insoniylik, axloqiy madaniyat va ijtimoiy uyg'unlikning raqamli ko'rinishi ham hisoblanadi. Onlayn suhbatda ishtirok etuvchilar yozma muloqotga emotsional ohang, tezlik, qisqalik va shaxsiy uslub qo'shishlari orqali netiket qoida va me'yorlariga amal qilgan bo'lishadi. Shu tariqa, onlayn muhitda til faqat aloqa vositasi emas, balki insonning madaniy, ijtimoiy va hissiy o'zligini aks ettiruvchi murakkab tizimga ham aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baron, N. S. (2010). *Always On: Language in an Online and Mobile World*. Oxford University Press. P. 63-69.
2. Baron, N. S. (2010). *Always On: Language in an Online and Mobile World*. Oxford University Press, p. 103.
3. Crystal, D. (2006). **Language and the Internet**. Cambridge University Press. p. 73-80.
4. Hardaker, C. (2010). "Trolling in Asynchronous Computer-Mediated Communication: From User Discussions to Academic Definitions." *Journal of Pragmatics*, 43(5), 2237–2251, p. 2243.
5. Lea, M., & Spears, R. (1991). "Computer-Mediated Communication, De-Individuation and Group Decision-Making." *International Journal of Man-Machine Studies*, 34(2), 283–301.
6. Xafizovna, R. N. (2022). On Linguistic Politeness Theory: Robin Lakoff's Theory of Politeness, Brown and Levinson's Theory of Politeness, Geoffrey Leech's Theory of Politeness. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 66-74.
7. Xafizovna, R. N. (2022). Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 123-133.
8. Ruziyeva Nilufar Xafizovna (2021). The category of politeness in different linguocultural traditions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11 (2), 1667-1675.
9. Xafizovna, R. N. . (2022). Linguistic Politeness Theory Review: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Fraser and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 145–152.

-
10. Ruziyeva N. (2020). FACE CONCEPT IN THE CATEGORY OF POLITENESS. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(4), 15-20.
 11. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Akhmedova Shahnoza Murodilloyevna. (2022). THE STUDY OF CULTURE IN CULTURAL STUDIES. Conferencea, 276–278.
 12. Shea, V. (1994). **Netiquette**. Albion Books. p. 32-35.
 13. Marina Z., Xafizovna R. N. ON POLITENESS THEORY AND ITS LINGUOCULTURAL IMPLICATION //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 848-855.
 14. Xafizovna R. N. THE BENEFITS OF INTEGRATING READING AND WRITING IN THE CLASSROOM ACROSS DISCIPLINES //MATERIALLARI. – 2024. – C. 599.
 15. Xafizovna R. N. POLITENESS AND ITS FORMS OF EXPRESSIONS IN DIFFERENT CONTEXT //OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI.
 16. https://medium.com/@blog_62129/onlayn-muhokama-forumlari-uchun-15-ta-netiket-qoidalari-bbc461f1dd0a